O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI QORAKO‘L TUMAN HOKIMINING QARORI

Qorako‘l t., Ulug‘bek ko‘chasi 35-uy

2022 - yil 13 - yanvar 12-2-37-Q/22 Qorako'l tuman hokimligi

Qorako’l tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Qorako`l tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Qorako’l tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Qorako’l tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Rasulov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (J.Toshpo’latov) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (B.Otaxonovga) tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini

oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Qorako’l sadosi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining Qorako’l.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Х.Я.Тоҳиров**

Қоракўл туман ҳокимининг
2022 йил 13 январдаги
12-2-37-Q/22-сон қарорига
1-илова

№	Yo'l belgisi o'rnatilgan manzil nomi yo'l belgisini nomi	Yo'l belgisining nomi
1.	4r-76 Qorako’l sh- Qorako’l temir yo’l bekati-Yangibozor q-Jig’achi q suv chiqarish shaxobchasi "yamonjar" a/y ning 2-3 km chap va o’ng tomoni	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
2.	4r-76 Qorako’l sh- Qorako’l temir yo’l bekati-Yangibozor q-Jig’achi q suv chiqarish shaxobchasi "yamonjar" a/y ning 3-4 km oralig‘ining chap va o’ng tomoni	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
3.	4r-58 M-37 Samarqand-Ashxobod" a/yo’lidan shaxobchalar shujumladan: p)4R-76 yo’liga padezning 1-2 km oralig‘ining chap va o‘ng tomoni	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
4.	4r-75 A-380 "G’uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" a/yo’li Varaxsha q-Maxonkul daxasi- Qorako’l sh. a/y ning 81-82 km oralig‘ining o‘ng va chap tomoni	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”
5.	4r-77 Qorako’l sh-Yangibozor q-Xujadavlat temir yo’l bekati a/y ning 0-1 km oralig‘ining o‘ng va chap tomoni	3.27 “To'xtash ta'qiqlangan”